

## **Pul-kredit siyosatining asosiy tamoyillari**

Markaziy bank inflyatsion targetlash rejimi doirasida iqtisodiyotda narxlar barqarorligini ta'minlashga qaratilgan pul-kredit siyosatini amalga oshirishda quyidagi tamoyillarga asoslanadi.

### **1. Inflyatsiya darajasi bo'yicha maqsadli ko'rsatkichning e'lon qilinishi va unga erishishning ustuvorligi.**

Iqtisodiyotning salohiyati, talab va taklifdagi o'zgarishlar, makroiqtisodiy prognozlar va umumqabul qilingan standartlar asosida aniqlanadigan inflyatsiyaning erishilishi kerak bo'lgan maqbul ko'rsatkichi maqsad – target etib belgilanadi. Mamlakatimizda inflyatsiyaning erishilishi lozim bo'lgan o'rta muddatli maqsadli ko'rsatkichi 5 foiz etib belgilandi va target darajasi keng jamoatchilikka (aholiga, biznes vakillariga va moliya bozori ishtirokchilariga) e'lon qilindi. Endilikda, Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan barcha sa'y-harakatlar, chora-tadbirlar va pul-kredit sohasidagi qarorlar inflyatsiyaning maqsadli ko'rsatkichi – targetiga erishishga qaratiladi. Maqsadli ko'rsatkichga erishilishi iqtisodiyot sub'ektlari tomonidan Markaziy bank faoliyatini baholash, umuman olganda, olib borilayotgan pul-kredit siyosatiga bo'lgan ishonch shakllanishining asosiy mezoni hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, makroiqtisodiy sohada qabul qilinayotgan barcha qarorlar inflyatsion maqsadlar bilan uyg'un holda qabul qilinishi lozim. Markaziy bank faoliyatida inflyatsiyaning target ko'rsatkichiga erishish vazifasi boshqa vazifalardan ustun hisoblanadi.

#### [Inflyatsiyaning 5 foizlik targeti mohiyati](#)

### **2. Markaziy bank asosiy stavkasi pul-kredit siyosatini yuritishning asosiy instrumenti hisoblanadi.**

Markaziy bank asosiy stavkasi – bank tizimi likvidligini tartibga solish bo'yicha banklar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarda qo'llaniladigan foiz stavkasi hisoblanib, uning darajasini belgilash orqali Markaziy bank tomonidan jalg qilinadigan va taqdim etiladigan qisqa muddatli resurslarning narxi belgilanadi. Markaziy bank asosiy stavkasini ko'rib chiqish bo'yicha Boshqaruv yig'ilishlari pul-kredit siyosatining asosiy yo'nalishlarida [oldindan belgilangan grafik](#) asosida yilda 8 marotaba o'tkaziladi. Bunda Markaziy bank tomonidan [asosiy stavka bo'yicha qarorlarning e'lon qilinishi](#) bilan bir qatorda uning kelgusida kutilayotgan darajasi (traektoriyasi) bo'yicha signallarning berilishi iqtisodiyot sub'ektlarining uzoq muddatli inflyatsion kutilmalari shakllanishida muhim o'rinn tutadi.

#### [Asosiy stavka darajalari](#)

### **3. Pul-kredit siyosati operatsion mexanizmi mustaqil ravishda ishlab chiqiladi va takomillashtirib boriladi.**

Pul-kredit siyosatining operatsion mexanizmi Markaziy bankning asosiy stavkasi va foiz koridori asosida ishlaydi. Operatsion mexanizm orqali Markaziy bankning qarorlari avval banklararo pul va REPO bozorlariga, keyinchalik iqtisodiyotdagi depozitlar va kreditlar foiz stavkalariga o'tib boradi. Natijada, aholi va tadbirkorlik sub'ektlarining kutilmalari asosida iste'mol, jamg'arish va investitsiyalar bo'yicha qabul qiladigan iqtisodiy qarorlari yalpi talab orqali inflyatsiya darajasiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

#### [Pul-kredit operatsiyalari va operatsion mexanizm](#)

#### **4. Pul-kredit siyosati bo'yicha qarorlarning makroiqtisodiy tahlil va prognozlar asosida qabul qilinishi.**

Markaziy bankning asosiy stavka bo'yicha qarorlari iqtisodiy faollikka va yalpi talabga bosqichma-bosqich, ma'lum vaqt oralig'ida kechikish bilan ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, Markaziy bank pul-kredit siyosati bo'yicha qarorlarni qabul qilishda har tomonlama asoslangan makroiqtisodiy tahlil va prognozlardan kelib chiqadi. Bugungi kunda Markaziy bank makroiqtisodiy prognozlarni ishlab chiqishda, asosan, Choraklik prognozlashtirish modelidan (QPM) foydalanmoqda. Bundan tashqari, bir qator ekonometrik va tarkibiy modellar prognoz natijalarini taqqoslashda va tadqiqotlarni amalga oshirishda ishlatilmoqda. Ta'kidlash joizki, asosiy stavka bo'yicha qarorlar ma'lum darajadagi noaniqliklar sharoitida qabul qilinadi. Sababi, makroiqtisodiy prognozlar iqtisodiy rivojlanishning ehtimoliy istiqbollari, jahon xomashyo va moliya bozorlaridagi kutilayotgan o'zgarishlar va boshqa omillar asosida shakllantiriladi. Shu sababli ham Markaziy bank pul-kredit siyosati yo'nalishi bo'yicha qarorlar qabul qilishda omillarning nisbatan barqaror tendentsiyalaridan va ularning inflyatsiya darajasiga ta'sirlaridan kelib chiqadi. Markaziy bank mamlakatdagi va global iqtisodiyotdagi o'zgarishlar va noaniqliklarni inobatga olgan holda tahliliy-prognozlash salohiyatini takomillashtirib boradi.

#### **5. Shaffof kommunikatsiya siyosati – inflyatsion targetlash rejimidagi pul-kredit siyosatining muhim dastagi.**

Inflyatsion targetlash rejimining asosiy elementlaridan biri bu pul-kredit sohasida qabul qilinayotgan qarorlarning ochiqligi va bu boradagi shaffoflikning ta'minlanishi hisoblanadi. Samarali kommunikatsiya siyosatining ishlab chiqilishi va pul-kredit siyosati sohasida qabul qilinayotgan qarorlarning keng jamoatchilikka o'z vaqtida va tushunarli tilda yetkazilishi aholi va tadbirkorlik sub'ektlarining inflyatsion kutilmalar shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Inflyatsion targetlashga o'tish davrining boshlanishi bilan Markaziy bank olib borayotgan faoliyatining ochiqligiga katta e'tibor bermoqda. Asosiy stavkani ko'rib chiqish bo'yicha har bir boshqaruvi yig'ilishi yakunlari bo'yicha press-reliz e'lon qilinishi, Markaziy bank Raisi va uning o'rinnbosarlari ishtiropida press-brifinglar tashkil etilishi hamda "Pul-kredit siyosatining asosiy yo'nalishlari", "Pul-kredit siyosati sharhi" va bir qator tahliliy sharhlar va infografikalarning e'lon qilib borilishi shu yo'lda qo'yilgan muhim qadamlardan hisoblanadi. Markaziy bank tomonidan inflyatsianing targeti doirasida shakllanishining ta'minlanishi va kommunikatsion shaffoflikning oshirilishi aholi va tadbirkorlik sub'ektlarining Markaziy bankka bo'lgan ishonchi ortishiga va amalga oshirilayotgan pul-kredit siyosati choralarini ta'sirchanligining oshishiga xizmat qiladi.